



UDK:398.8:81'37

*Gulasal YOQUBOVA,*

*Tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston*

*E-mail: n.scienceofworld@gmail.com, <https://ORCID.org/0009-0009-3594-0989>*

*NDKTU dotsenti U.Bazarova taqrizi asosida*

### ALLUZIYA VA PRETSEDENT BIRLIKLARNING BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARIDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya hodisasining badiiy va semantik xususiyatlari qiyosiy-tahlilii asosda o'rganiladi. Tadqiqot obyektini ingliz, rus va o'zbek bolalar folklor qo'shiqlari tashkil etadi. Maqolada alluziyaning bolalar folkloridagi tarbiyaviy, estetik va madaniy xotirani saqlash funksiyasi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Alluziya, bolalar folklori, folklor qo'shiqlari, ramziylik, tarixiy ishora, mifologik obraz, intertekstual aloqadorlik, ingliz folklori, rus folklori, o'zbek folklori, marosim folklori, tarbiyaviy funksiya.

### THE USE OF ALLUSIONS AND PRECEDENT UNITS IN CHILDREN'S FOLK SONGS

Annotation

This article examines the artistic and semantic features of the phenomenon of allusion in children's folk songs based on a comparative-analytical approach. The research focuses on English, Russian, and Uzbek children's folk songs. The study highlights the educational, aesthetic, and cultural memory functions of allusion in children's folklore.

**Key words:** Allusion, children's folklore, nursery rhymes, symbolism, historical reference, mythological image, intertextuality, English folklore, Russian folklore, Uzbek folklore, ritual folklore, educational function.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АЛЛЮЗИЙ И ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ЕДИНИЦ В ДЕТСКИХ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПЕСНЯХ

Аннотация

В данной статье художественные и семантические особенности явления аллюзии в детских народных песнях рассматриваются на основе сравнительно-аналитического подхода. Объектом исследования являются английские, русские и узбекские детские фольклорные песни. В статье раскрываются воспитательная, эстетическая и культурно-мемориальная функции аллюзии в детском фольклоре.

**Ключевые слова:** Аллюзия, детский фольклор, народные песни, символизм, историческая отсылка, мифологический образ, интертекстуальность, английский фольклор, русский фольклор, узбекский фольклор, обрядовый фольклор, воспитательная функция.

**Kirish.** Folklor xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasi, dunyoqarashi va estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan og'zaki ijod namunasidir. Ayniqsa, bolalar folklori yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida, milliy qadriyatlarni singdirishda hamda til va tafakkur rivojida muhim o'rin tutadi. Bolalar folklor qo'shiqlari xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ijtimoiy tajribasini avloddan-avlodga yetkazuvchi lingvomadaniy hodisa sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qo'shiqlarda xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, mifologik tasavvurlari va milliy mentaliteti turli badiiy vositalar orqali ifodalanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bolalar folklor qo'shiqlarida qo'llanilgan alluziya va pretsedent birliklarning lingvistik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy-estetik va tarbiyaviy vazifalarini yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari bolalar folklorining intertekstual tabiati, madaniy xotira va milliy qadriyatlarni aks ettirish mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Zamonaviy lingvistika va folklorshunoslikda matnning intertekstual tabiati, madaniy kodlari hamda pretsedent hodisalarning qo'llanilishi masalalari dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, alluziya va pretsedent birliklar matnning semantik qatlamini boyituvchi, uning mazmunini chuqurlashtiruvchi hamda muayyan madaniy axborotni uzatuvchi muhim vositalardir. Alluziya muallif yoki ijodkor tomonidan oldindan ma'lum bo'lgan tarixiy voqea, afsona, diniy rivoyat, adabiy asar

yoki mashhur shaxsga bilvosita ishora qilish orqali yuzaga keladigan badiiy hodisa bo'lsa, pretsedent birliklar esa muayyan madaniyat vakillari ongida mustahkam o'rin egallagan va umumiy bilim sifatida qabul qilingan til birliklari, nomlar, matnlar yoki vaziyatlarni anglatadi.

Bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya va pretsedent birliklarning qo'llanilishi nafaqat badiiy-estetik vazifani bajaradi, balki bolalarning milliy-madaniy tafakkurini shakllantirish, tarixiy xotirani saqlash va madaniy identifikatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Folklor matnlarida uchraydigan afsonaviy qahramonlar, tarixiy shaxslar, xalqona ramzlar va an'anaviy obrazlar pretsedent birliklar sifatida namoyon bo'lib, matnning lingvomadaniy mazmunini boyitadi. Shu bilan birga, ular bolalar ongida muayyan qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda intertekstuallik, pretsedentlik va alluzivlik masalalari N.D. Arutyunova, Yu.N. Karaulov, V.V. Krasnix, Yu.M. Lotman, M.M. Baxtin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan bo'lsa-da, bolalar folklor qo'shiqlarida ushbu birliklarning funksional-semantik xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, o'zbek bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya va pretsedent birliklarning lingvokulturologik mohiyati, ularning madaniy axborotni uzatishdagi o'rni hamda tarbiyaviy funksiyalarini tahlil qilish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Bolalar folklor qo'shiqlari asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho durdonalar hisoblanadi. Ushbu folklor namunalari eng qadimiy va serqirra qatlam hisoblanib, har bir xalqning orzu intilishlari, tarixi, diniy qarashlari va kundalik turmush tarzini aks ettiradi. Shuningdek bolalar folklor qo'shiqlari nafaqat didaktik balki badiiy-estetik qiymatga ham egadir. Bu turdagi folklor namunalarida ko'p hollarda alluziya hodisasi – ya'ni ma'lum bir tarixiy shaxs, mifologik obraz yoki voqeaga ishora qilinadi.

Alluziya so'zi lotinchadan olingan bo'lib "ishora", "kinoya" degan ma'nolarni anglatadi. Alluziya badiiy matnlar tarkibida kelib, biror tarixiy voqea yoki shaxsning nomini aytmasdan turib ishora qilish san'atidir. Aynan bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya ko'proq ramziy ma'noga egadir. Shuningdek onomastik nomlar ham bolalar folklor qo'shiqlarida alluziyaga asos bo'lib kelishi mumkin. Rus tilshunosi M.V.Kalinkin ta'kidlaganidek, har qanday nom matnga tarixiy, madaniy, geografik, konnotativ ma'lumotlar yetkazib beruvchi o'ziga xos "transport vositasi" dir[1].

Ko'p hollarda pretsedent birliklar alluziyaga asos sifatida keltiriladi. Pretsedent birliklar til jamoasi a'zolariga yaxshi tanish bo'lgan va nutqda muntazam qo'llaniladigan madaniy birliklar hisoblanadi.[2] Pretsedent birliklar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin.

Pretsedent nomlar  
Pretsedent ifodalar  
Pretsedent vaziyatlar  
Pretsedent matnlar.

Ingliz bolalar folklor qo'shiqlari (nursery rhymes) tarixiy va siyosiy voqealarga boy yashirin ishoralar bilan ajralib turadi. Ko'plab tadqiqotchilar ularni xalq orasida siyosiy fikrni yashirin ifoda etish vositasi sifatida baholaydilar.

Natijalar va Muhokama

Ingliz bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya asosan siyosiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Girls and boys come out to play,  
The moon does shine as bright as day;  
Come with a whoop, come with a call,  
Come with a good will or not at all.  
Loose your supper, loose your sleep,  
Come to your playfellows in the street.  
Up the ladder and down the wall  
A halfpenny loaf will serve us all  
But when the loaf is gone, what will you do?  
Those who would eat must work- 'tis true[3].  
(Qizlar-u o'g'il bolalar, chiqinglar o'ynagani,  
Oy kunduzdek yorqin nur sochadi.  
Qichqiriq bilan keling, chaqiriq bilan keling,  
Yaxshi niyat bilan keling, bo'lmasa umuman kelmang.  
Kechki ovqatingizni qo'ying, uyquni ham unuting,  
Ko'chadagi o'yindoshlaringiz yoniga keling.  
Narvondan yuqoriga, devordan pastga,  
Yarim tangalik non barchamizga yetadi.  
Ammo non tugasa, nima qilasiz?  
Yemoqchi bo'lgan kishi mehnat qilishi kerak — bu haqiqat.)

Ushbu ingliz bolalar folklor qo'shig'i "tishlagan odam ishlashi ham kerak" degan ibora hukmron bo'lgan davrlarga alluziv ishora qiladi. Ushbu davr Angliya tarixida 19-asrdagi sanoat revolyutsiyasiga to'g'ri kelib, faqatgina boy oila bolalari maktabda ta'lim olishga qurbi yetgan bo'lib, oddiy oila bolalari mehnat faoliyatida ota-onalariga yordam berishga majbur bo'lgan. Bolalar asosan 5 yoshidan ishlashni boshlashgan bo'lib, ular zavodlarda, tegirmonlarda va konlarda kuniga 16 soatlab mehnat qilishgan. O'yin uchun esa ularda deyarli vaqt bo'lmagan bo'lib, ularning bolalaligi sanoat revolyutsiyasi tomonidan o'g'irlangan. Qo'shiq matnida esa bolalar hatto

kechki ovqatidan va uyqudan ham kechib o'ynashga undaladi. Og'ir mehnat sharoiti tufayli 25 yoshlarida vafot etishgan.

"Ring a Ring o' Roses"  
Ring-a-ring o' roses,  
A pocket full of posies,  
A-tishoo! A-tishoo!  
We all fall down.  
(Uzuk-uzuk atirgullar,  
Cho'ntak to'la gular,  
A-pshshu! A-pshshu!  
Barchamiz yiqilamiz.)

Ushbu ingliz bolalar folklor qo'shig'i 1665-yilda sodir bo'lgan "Buyuk London vabosi" ishora qiladi. Qo'shiqning birinchi misrasidagi "uzuk-uzuk atirgullar" vaboning dastlabki alomatlari bo'lgan teridagi qizil halqasimon toshmalarni anglatadi. Bu o'rinda "Ring-a-ring o' roses" pretsedent ifoda sanalib, qo'shiq matnida ingliz xalqining madaniy ongida mavjud bo'lgan, barcha uchun tushunarli va tanish bo'lgan ifoda hisoblanadi. Qo'shiq oxiridagi "barchamiz yiqilamiz" misrasi esa vaboning oxiri o'lim bilan tugashini anglatadi. Bu o'rinda "We all fall down" pretsedent vaziyat sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki qo'shiq matnida u ma'lum bir nom yoki ifodaga emas, balki kasallikdan so'ng odamlarning vafot etishi holatiga ishora qilmog'da.

Во поле берёза стояла qo'shig'i bolalar repertuarida ham keng tarqalgan. "Qayin" obrazi rus folklorida poklik, go'zallik va go'zal qiz timsoli sifatida talqin qilinadi. "Qayin" obrazi Rossiya timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Demak, oddiy daraxt tasviri ortida milliy o'zlikka ishora yashiringan. Rus bolalar folklorida alluziya ko'pincha mifologik qatlam orqali namoyon bo'ladi. Ular tarixiy voqealardan ko'ra ko'proq arxaik tasavvurlarni aks ettiradi.

O'zbek bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya

O'zbek bolalar folklor qo'shiqlarida o'zbek xalqining orzu-intilishlari, tarixi va ijtimoiy hayoti akslanadi. Ushbu qo'shiqlardan eng mashhuri "Boychechak" hisoblanadi.

Boychechak bahoriy marosim qo'shig'i sifatida mashhur. Ushbu qo'shiqdagi boychechak obrazini chuqur tahlil qilish lozim. "Boychechak" aslida o'zbek tilida gulning bir turini atovchi so'zdir. Bunda u to'g'ridan-to'g'ri gul tushunchasini, gul turini anglatib keladi. Ammo "boychechak" milliy madaniyatimizga xos bo'lgan qadriyat — taqvimiy marosim, bahorgi udumlardan birining nomini ham ifodalab keladi. Bunda u tom ma'nodagi mental tushuncha hisoblanib, ayni vaqtning o'zida madaniy konsept sifatida namoyon bo'ladi va o'zida xalqimizning tabiat kulturlariga ishonchi asosida shakllangan tarixiy-madaniy, milliy, an'anaviy qadriyat haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi.

Badiiy ijodda boychechak tabiatda birinchi unib chiquvchi gul turi sifatida inson hayotining ilk davri — bolalikka tenglashtiriladi va o'xshatiladi. Bunda uning obrazlilik bilan bog'lanishi oydinlashadi. Shu obrazlilik asosida bolalar tarbiyalanadigan ayrim maktabgacha ta'lim muassasalari "Boychechak" nomi bilan atalganini kuzatish mumkin. Bunda boychechak o'zida bola obrazini ifodalab keladi. Endi u obrazlashgani sabab avvalgi holati, ya'ni aniq predmetlik tushunchasidan uzoqlashgan va asl mantiqiy hodisaga aylangan[4]. Xulosa qilinadiki, qo'shiqdagi boychechak guli yangilanish va tabiat uyg'onishining ramzidir. Bu qo'shiq bolalik va qadimgi Navro'z marosimlariga alluziya qiladi.

**Xulosa.** Bolalar folklor qo'shiqlarida alluziya hodisasi xalqning tarixiy xotirasi va madaniy kodini saqlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ko'p hollarda pretsedent birliklar asosida vujudga keladi. Ingliz, rus va o'zbek folklori misolida ko'rganimizdek, alluziya har bir xalqning tarixiy sharoiti va dunyoqarashiga mos ravishda shakllanadi.

Bolalar qo'shiqlari soddaligi ortida chuqur ma'no qatlamlarini yashiradi. Alluziya esa ana shu ma'no qatlamlarini birlashtiruvchi badiiy ko'prik vazifasini bajaradi. Shu bois

bolalar folklorini o'rganish nafaqat pedagogik, balki filologik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Калинин М.В. От литературной ономастики к поэтонимологии // Логос ономастики. – 2006. – №1. – С. 84.
2. Караулов. Ю.Н. Русский язык и языковая личность. — Москва: Наука, 1987.
3. Linda Alchin. The Secret History of Nursery Rhymes. London: Rhymes World Publications, 2014. – P. 16.
4. Fayzulloev Otabek Muhammadovich. O'zbek folkloridagi lingvokulturemalarning inglizcha tarjimada berilishi (bolalar folklori va ertaklar misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: Buxoro davlat universiteti, 2019. – 17 b.
5. Iona Opie, Peter Opie. The Oxford Dictionary of Nursery Rhymes. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
6. To'ra Mirzayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
7. Во поле береза стояла: текст и мелодия народноу pesni. Sayt: Kvaclub — Семейный портал (<https://kvaclub.ru/babyclub/bsong/bereza/>). – (kirish sanasi: 16.04.2026).
8. Ring-a-Ring o' Roses nursery rhyme and lyrics | Words for Life. Words for Life: National Literacy Trust tomonidan yaratilgan bolalar uchun qo'shiqlar va faoliyatlar sahifasi. URL: <https://wordsforlife.org.uk/activities/ring-a-ring-o-roses/>
9. Girls and Boys Come Out to Play. Wikipedia, the free encyclopedia. URL: [https://en.wikipedia.org/wiki/Girls\\_and\\_Boys\\_Come\\_Out\\_to\\_Play](https://en.wikipedia.org/wiki/Girls_and_Boys_Come_Out_to_Play) (kirish sanasi: 16.04.2026).